



## **“O‘tkan kunlar” asarida frazemalarning tahlili**

**Inobidinova Nodira Otabek qizi**

Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti

Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Email: [nodirainobidinova@gmail.com](mailto:nodirainobidinova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asrida qo‘llanilgan frazemalarning ma‘no va shakliy jihati yoritilgan, ya‘ni leksik, morfologik jihatlari va frazemalardan anglashiladigan ma‘no, frazema turlari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** arxaizm, dialektalizm, frazema, sinonim, antonim, emotsional-ekspressiv, leksema.

Har bir asarning o‘z tili va uslubi bo‘ladi. Shu xususiyati bilan asarlar bir-biridan ajralib turadi. Asarning o‘z tili bo‘lgani kabi, shu tilni sevuvchi o‘quvchilari ham bisyor bo‘ladi. Badiiy asarning jozibasi, undagi noziklik nafaqat voqealar zanjiri bilan, balki asar muallifining so‘z tanlash mahorati, leksik qatlamdan foydalanishi, dunyo qarashi, unda mujassam bo‘lgan asosiy g‘oya ham namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ham badiiy asarning leksik xususiyatlarini o‘rganish muhimdir.

Badiiy asarning leksik xususiyati haqida o‘rganayotganimizda, unda qo‘llanilgan so‘z boyligi, arxaizmlar, dialektizmlar, tarixiy so‘zlar, o‘zlashma so‘zlar, xalqona iboralar, frazemalar, qahramonlar nutqiga mos til vositalari tushuniladi. Har bir ijodkor, asar muallifi, mazkur vositalarni o‘z maqsadidan kelib chiqib, asar orqali qanday ma‘noni ochib berishiga ko‘ra tanlaydi va ular orqali o‘sha davr manzarasi, voqealar ruhi, qahramonlar xarakteri va ijodkor qarashlari ochib beriladi.

Millatimiz romanchiligida yangi sahifa ochib bergan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari ham shu jihatdan nihoyatda boy va sermazmundir. Bu asar orqali o‘tgan XIX asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy manzaralar, davr hayoti tasvirlanadi. Qodiriy zamonni, xalqning orzu-maqсадlarini, intilishlarini, qiyinchiliklarini, ijtimoiy muammolarni, xalqqa qilinayotgan adolatsizliklarni, o‘sha zamon insonlari qalbida kechayotgan alamli va quvonchli tuyg‘ularni haqqoniy ko‘rsatish maqsadida quroli bo‘lgan “til va so‘z” dan mahorat bilan foydalanadi.

“O‘tkan kunlar” asari leksik xususiyatlarga boy hisoblanadi. Qodiriy asarida tarixiy so‘zlar, arxaizmlar ( bek, qozixon, mingboshi, dor ), dialektal unsurlar ( Toshkent aholisi nutqida “bo‘pti, qattasan? qo‘ysa-chi” kabi), arabcha va forschalar so‘zlar qo‘llanishi (ishq, muhabbat, adolat, saboq, ilm, dil, oqibat ), xalqona so‘zlar va iboralar (ko‘ngli tushdi, ko‘ngli yorishdi, bosh ko‘tarish, ko‘ziga issiq ko‘rinmoq), sinonim va antonimlarning mohirona qo‘llanishi (sevgi-muhabbat-ishq, zulm-adolat), qahramon xarakteriga mos so‘z tanlash ( Otabek —muloyim, mantiqli, ziyoli, savodli; Kumush — samimiy, nozik, mehribon; Zaynab — rashqchi, oddiy va xalqona so‘zlardan foydalanadi ) kabilardan foydalanadi.

Biz esa muallif mohirona qo‘llagan frazemalar haqida fikr yuritamiz.

Frazema aslida nima? “O‘tkun kunlar” asarida qanday frazemalar qo‘llanilgan va qay maqsadda? degan savollarga javob topamiz.

Frazema — ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalarning umumiy nomi. Frazeologizmlar shaklan o‘zlariga o‘xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so‘zlarni erkin tanlash, almashtirish yo‘li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma’no va muayyan leksik-grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo‘llanadi, ya’ni frazeologizm tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas: anqoning urug‘i, arpasini xom o‘rmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sig‘may ketmoq, kapalagi uchmoq, ko‘ngli joyiga tushmoq, qo‘li ochiq, qulog‘i og‘ir va boshqa frazeologizmlar tarixiy qo‘llanish me’yorlariga, usullariga ega bo‘lib, ularning ma’nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi.<sup>1</sup>

Frazema orqali biz fikrimizni yanada ta’sirli qilib tinglovchiga yetkaza olamiz. U orqali nutqimiz mazmunli va jozibali bo‘ladi. Frazema yaxlit bir so‘z hisoblanadi. Uning ma’nosi bir so‘zga tengdir. Masalan: og‘zi qulog‘iga yetdi frazemas, hursand so‘ziga ma’noviy jihatdan mos tushadi.

Frazeologizmlar tashqi ko‘rinish jihatidan so‘z birikmasi yoki gap ko‘rinishida bo‘ladi. So‘z birikmasi ko‘rinishidagi frazeologizm: ko‘ngli bosh, jig‘iga tegmoq, bel bog‘lamoq, kir izlamoq.

Gap tipidagi frazeologizm **“gap kengaytiruvchi + kesim”** qolipi mahsuli: istarasi issiq, ichi qora, kapalagi uchib ketdi, po‘konidan yel o‘tmagan.<sup>2</sup>

“O‘tkun kunlar” asarida qo‘llangan frazemalarga to‘xtaladigan bo‘lsak:

Bu to‘g‘rida uylanguchi yigit bilan er qilg‘uchi qizning **lom-mim deyishka** haq va ixtiyorlari bo‘lmay, bu odatimiz ma’qul va mashru’ ishlardan emasdir.

Mana shu parchada **“lom-mim demaslik”** iborasi qo‘llangan. Bu ibora hech narsa demaslik, e’tiroz qilmaslik leksemasiga teng keladi. Bu frazemaning tarkibi arab harflari “lom va mim” va “demaslik” — inkor shakldagi fe’l bilan ifodalangan. Bular yaxlit bir holda qo‘llanadi. Alohida qo‘llanganda bunday ma’no kasb etmaydi. Bu frazema emotsional- ekspressiv bo‘yoqdorlikka ega. U shunchaki gapirmaslik emas, umuman hech narsa demaslik, qarshi chiqmaslik ma’nolarini ifodalaydi.

“Lom-mim demaslik“ frazemasining sinonim va antonimlari mavjud. **Sinonimi:** g‘ing demaslik, og‘iz ochmaslik, tilini tiymoq; **antonimi:** og‘zidan gap qochmoq, tili yechilmoq kabilar.

Bu ibora tashqi ko‘rinish jihatidan so‘zga teng ibora hisoblanadi. Alohida komponentlarga ajratganimizda esa, lom-mim — ot so‘z turkumi, sodda so‘z, demaslik — fe’l, -ma inkor shakl qo‘shimchasi va -slik harakat nomi qo‘shimchasi,

---

<sup>1</sup> Elektron manba: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologizm>

<sup>2</sup> Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili . — Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. — B.129

yasama so‘z ko‘rinishida ajratiladi. U ot so‘z turkumidagi frazeologik birikma hisoblanadi. Misol uchun: Uning lom-mim demasligi meni hayron qoldiradi.

— Mirzakarim aka qizini erga berdimi, eshitdingizmi? Bu savoldan nima uchundir Homidning **chehrasi buzildi** va tilar-tilamas javob berdi:

Bu gapda esa “chehrasi buzildi” iborasi qo‘llangan bo‘lib, u kayfiyati o‘zgardi, ranjidi leksemalariga mos tushadi. Bu ibora so‘zga teng ibora hisoblanadi. Uning komponentari ot va fe‘l so‘z turkumidan tashkil topgan. Unda ijobiy so‘z bo‘lmish — chehra so‘zi va salbiy ma‘nodagi — buzmoq so‘zi qo‘shilib, salbiy semadagi iborani yaratadi, ya‘ni kayfiyati o‘zgardi.

Yana asrda qo‘llanilgan frazemalar: ko‘ngli tushdi, bosh ko‘tarmoq, ko‘ziga issiq ko‘rindi, yuragi orqaga tortdi, ko‘ngli yorishdi, ko‘zdan yosh chiqdi, ko‘ngli og‘ridi, ko‘ngliga g‘ulg‘ula solmoq, yuragi ezilmoq, ko‘ngil qo‘ymoq, bosh egmoq, og‘zi kuygan, ko‘z quvonchi, og‘ir gap, ko‘z qirini tashladi va hakazolar.

“O‘tkan kunlar” asari frazemalarga boy. Asardagi frazemalar sevgi va sadoqat, milliy qadriyatlar, ota-ona va farzand munosabati, insoniy iztirob va g‘ururni keng yoritib berishga xizmat qilgan. Biz ular orqali asarni yanada ta’sirchan va jozibali, fikrni yanada kengaytirib kelganini ko‘rishimiz mumkin. Abdulla Qodiriy xalq tilidan olingan frazemalarni san‘at darajasida qo‘llagan va yuksak darajaga olib chiqqan. Ularni o‘z o‘rnida, o‘z maqsad va obrazida qo‘llagan. Shu boisdan “O‘tkan kunlar” asari hali hamon xalq ko‘nglidan joy olgan asarlar sarasida turadi, uning o‘quvchilari butun dunyoda topiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.— B.414.
2. Elektron manba: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologizm>.
3. Elektron manba: //kdpelmjpfafjppnhbloffcjpeomlnpah/https://arm.navoiy-uni.uz/wp-content/uploads/2019/04/utgan\_kunlar\_ziyouz\_com.pdf.
4. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. — Toshkent: Sharq, 2004. — B.381.
5. Elektron manba: <https://uzschoolcorpara.uz/uz/Dictionary?q=lom-mim>.